XALQ DEPUTATLARI ZANGIOTA TUMAN KENGASHI QARORI

2022 - yil 28 - mart VI-36-38-10-138-K/22 Zangiota tuman hokimligi

Bog‘zor ” mahallasiga “Toshkent” mahallasidan qolgan 200 ta xonadonni qo‘shib yuborish hamda O‘zgarish hududidagi Chorbog‘ mahalla fuqarolar yig‘inini moliyalashtirish to‘g‘risida

“Toshkent” mahallasini Toshkent shahar “Yangi xayot”” mahallasiga qo‘shilganligi munosabati bilan, “Toshkent” mahallasida qolgan 200 ta xonadonni mahalla fuqarolar yig‘ini raisi yo‘qligi, bola parvarishi nafaqasini hujjatlarni topshirishda, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”larni yuritilishi hamda kam ta’minlanganlar bilan ishlashda aholisi hozirgi kunda sarson bo‘lib muammolar kelib chiqayotganligi “Toshkent” mahallasidan qolgan 200 ta xonadon Zangiota tumani, “Zangiota” hududida joylashgan “Bog‘zor” mahalla fuqarolariga qo‘shib yuborishni ma'qullashtirish hamda O‘zgarish hududidagi Chorbog‘ mahalla fuqarolar yig‘ini shu kunga qadar jamoatchilik asosida faoliyat yuritib kelganligi ushbu mahallada 260 ta xonadon 435 ta oila mavjudligi, Chorbog‘ mahalla fuqarolar yig‘inini moliyalashtirish zarurligi to‘g‘risida tuman hokimi o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Sh.Umarxo‘jayevaning ma’lumotini tinglab Xalq deputatlari Zangiota tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Tuman hokimi o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Sh.Umarxo‘jayevaning “Bog‘zor ” MFY mahallasiga Toshkent shaharga

asosiy qismi o‘tib “Toshkent” mahallasidan qolgan 200 ta xonadonni qo‘shib yuborish hamda O‘zgarish hududidagi Chorbog‘ mahalla fuqarolar yig‘inini moliyalashtirish to‘g‘risidagi ma’ruzasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahri Yangihayot tumaniga o’tgan “Toshkent” mahallasidan qolgan 200 ta xonadon “Bog‘zor ” mahallasiga qo‘shib olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (F.Zokirov)ga O‘zgarish hududidagi Chorbog‘ mahalla fuqarolar yig‘inini moliyalashtirish bo’yicha kerakli ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari, mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi boshlig‘i (Sh.Umarxo‘jayeva), Zangiota tumani moliya bo‘limi mudiri (A.Исанбаев) va sektor rahbarlari mazkur qaror ijrosini belgilangan muddatida ijrosini taminlashini nazorat qilsinlar.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Akromov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **Tamikayev A. U.**